

CHIZMACHILIKDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH OMILLARI

Madiyarova Raushan Rizabekovna

Qoraqalpoq davlat universiteti. Arxitektura kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336847>

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarga sifatli bilim berish va ularning grafik tayyorgarligini oshirishda ko'rgazmali qo'llanmalarining o'rni va ahamiyati, ularning tarkibiy qismlari va uni tayyorlash tamoyillari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ko'rgazmali qo'llanma, ko'rgazmalilik, plakat, o'qitish vositasi.

ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ИЗОБРАЖЕНИЯ В ЧЕРЧЕНИИ

Аннотация. В статье говорится о роли и значении наглядных пособий, их составляющих и принципах их подготовки в обеспечении студентов качественными знаниями и совершенствовании их графической подготовки.

Ключевые слова: Наглядное пособие, визуализация, плакат, средство обучения.

FACTORS OF USING VISUAL MEANS IN DRAWING

Abstract. They discussed the role and significance of visual AIDS, their components, and the principles of preparing students for high-quality learning and improving their graphic skills.

Keyword: Visual aid, visibility, poster, tutorial.

KIRISH

Yurtimizda yosh avlodning aqlan etuk va ma'nan barkamol bo'lib ulg'ayishini ta'minlash maqsadida ta'lim tizimida yuqori sifatga erishish, o'qitishning ilg'or tajribalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda farzandlarimizni kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lishlariga erishish ayni paytda ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagogning bosh maqsadiga aylangan. Yoshlarni kelgusida jamiyatda o'z o'rnilarini belgilashda kasb tanlash muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. O'qitish va o'qish ishlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'z ustida muntazam va izchil ravishda ishlashlarini taqozo etadi. Shu bilan birga, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari juda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

O'quvchilarning o'quv faoliyati S.R.Mirzaeva, J.Raxmonov, D.R.Mirzaevalarning fikriga ko'ra o'quvchilarning o'quv faoliyatini psixologik tahlil qilinishi va unda bir qator tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish kerak [1]: chizmachilik kursinining mavzulari haqida qisqacha axborot beruvchi ma'lumotlarni tayyorlash; didaktik tarqatma materiallarni tayyorlash; kerakli adabiyotlar yoki uslubiy qo'llanmalarni yetarli miqdorda tayyorlash va shu jumladan, uslubiy tayyorgarlik ishlari bo'yicha darslarning batafsil uslubiy senariyasini tayyorlash va ko'rgazmali o'tishtavsiya etiladi.

Ma'lumki, bu borada, bir qator kamchiliklar, nuqsonlar, zaifliklar mavjud ekanligi, jumladan, o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining pastligi, etarli darajada shakllanmaganligi va boshqa faktlar fanni talab darajasida o'zlashtira olmasligiga sabab bo'lmoqda. Buning psixologik tavsifi to'g'risida materiallar etarli bo'lishiga qaramay, o'qitishda undan samarali foydalanilmaydi

[2]. E.G'oziev o'z tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv va biluv faoliyatini faollashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratgan: muammoning real jihatlarini idrok qilishga yo'naltirish; aqliy izlanishlarni jadallashtirish; lohida holatlarni psixologik sharhlash; o'xshash

va farqli tomonlarini topish uchun ob'ektlarni o'zaro qiyoslash; ob'ektlardagi umumiy jihatlarni psixologik tavsiflash; farqlarni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni sharhlash; matndagi masalalar va materiallarning o'ziga xosligiga binoan ularni tasniflash; fan mazmunini tahlil qilishda uning ko'lamini, o'quvchilarning imkoniyatlarini alohida inobatga olish; o'quv dasturlari mohiyati ta'lim uzluksizligi prinsipiga mutanosibligini ta'minlash; o'qituvchi faoliyati uslublari, usullarining zamon talablariga mos kelishi; o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun pedagogik– psixologik shart–sharoitlarning qulayligi; o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda shaxsning individual- tipologik xususiyatlarini inobatga olish; tanlangan metodlar va metodikalar ham shaxsga, ham mavzuga xizmat qilishini ta'minlash.

TADQIQOT NATIJALARI

N.I.Hurboev, A.A.Karimov, U.T.Alimovlar “Grafik savodxonlikka ilk qadam” nomli ilmiy maqolasida barcha fanlar qatori chizmachilikni puxta o'zlashtirish o'quvchidan bir qator xislatlarga ega bo'lishni, ya'ni fanni o'rganishning o'ziga xos talablari va tartibi-qoidalari mavjudligini, ularga rioya qilish bilan samarali o'zlashtirishni ta'minlashi xususida fikr yuritgan [3]. O'quvchi chizma shriftlarini o'rganish jarayonida nafaqat mazkur fan, boshqa bir qator shu kabi fanlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan sifatlar va odatlarni shakllantirib, rivojlantiradi. Shu o'rinda, chizma shriftini yozish jarayonini tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lumki, u aniq o'lchamlar bilan 75° qiyalikda yoziladi. Misol sifatida 10- shriftning yozilishiga e'tibor qarataylik. Harflar va raqamlarning balandligi bir xil o'lchamda, lekin ularning eni konstruktiv tuzilishi va shaklidan kelib chiqib bir nechta guruhlariga bo'linadi.

Demak, har bir harfni enini qunt bilan aniq o'lchab belgilab chiqish kerak. Harflar orasidagi masofa 2 mm, har bir harflar orasidagi masofa sinchkovlik bilan bir xil qilib belgilab olingandan keyin 75° qiyalikda ingichka chiziqqlar o'tkaziladi. Bu vazifa shrift yozish uchun tayyorgarlik bo'lib, uning to'g'ri va aniq bajarilishi zarurdir. Mazkur jarayonda o'quvchi chiziqqlar orasidagi masofaning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun bir necha bor takroran diqqat bilan qaraydi va ularni o'zaro taqqoslaydi. Buning natijasida o'quvchi ko'z bilan chamalab o'lchashni, ya'ni to'g'ri va aniq ishlashni o'zida shakllantiradi.

Chiziqqlar qalinligi va o'zaro parallelligini saqlash uchun qo'l xarakatini aql talabiga bo'ysunishga majbur qiladi. Bu jarayon bir necha bor takrorlanishlar xisobiga amalga oshiriladi. Harf yoki raqamlarni yozishda ularning namunasidan ko'z bilan andoza olinadi. Buning uchun namunaga o'ta diqqat bilan qarab uning nusxasi xotiraga olinadi va so'ng qog'ozga chizma asboblari yordamida qo'l bilan chiziladi. Har bir harfni yozish uchun ularni bir necha marotaba xotiraga olishga to'g'ri keladi. Buning natijasida esa xotiraga olish sifati rivojlanib boradi.

Chizma shriftini to'g'ri bajarilishi ko'z bilan chamalash, xotiraga olish, qo'lning to'g'ri harakatlantirilishi va tasvirlarni o'zaro taqqoslash kabi jarayonlarni takrorlanishlari hisobiga amalga oshiriladi. Takrorlanish jarayoni esa har qanday odamdan sabr-toqatli bo'lishni talab qiladi. Demak, shriftni yozish jarayonida o'quvchidan yana bir eng zarur bo'lgan ijobiy xislatni, ya'ni sabr-toqatli bo'lishga undaydi. O'quvchining bunday xislatga ega bo'lishi ta'lim jarayonida boshqa fanlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlar qatori mustaqil respublikamizda ham turli chizmalar, loyihalar va chizma shriftlari zamonaviy kompyuterlarda tez va sifatli bajarilmoqda.

Demak, chizma shriftini kompyuterda yozishda hech qanday muammo yo'q. Lekin uni qo'lida yozish jarayonida o'quvchi o'zida bir qator ijobiy sifatlarini rivojlantirib, tarbiyalash

natijasida grafik savodxonlikka kirib keladi. Shuning uchun ham ta'lim tizimining o'quv rejasiga kiritilgan har bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur fanlar o'quvchilarga bilim berishi bilan chegaralanib qolmay, ularni samarali tarbiyalashni ham ko'zda tutadi. Shu nuqtai nazardan barcha fanlar qatori grafik ta'limning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari e'tibordan chetda qolmasligi va «Chizma shriftlari» kabi chizmalarni o'quvchilarga qo'lda bajarishga o'rgatib, ularning chuqur bilim olish uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlarni shakllantirib, rivojlantirgan holda grafik savodxonlikka ilk qadam qo'yish imkoniyatini yaratishimiz zarur. Mana shu tarzda o'quvchilarga bugungi kun talabi darajasida sifatli bilim berish va ularni grafik tayyorgarligini oshirish kabi dolzarb vazifani bajarishga erishamiz. Albatta bunda ko'rgazmali qo'llanmalarining o'rni ham katta. Ayniqsa, o'qitish vositalarining metodik tizimdagi tarkibiy qismlari, ko'rgazmali qo'llanmalarining o'quv faoliyatiga ta'siri va ko'rgazmali qurollarning ta'lim jarayonidagi o'rni dars jarayonini to'g'ri tashkil qilishdagi ahamiyati bilan bog'liq. Ko'rgazmali qurollarda ko'rsatmalilikning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tabiiy ko'rgazmalilik - o'quvchilarni mavjud obektlar: o'simliklar, binolar, mashinalar va hokazolar bilan tanishtirishni taqozo etadi.

2. Tasvirli ko'rgazmalilik – mavjud olamni va borliqdagi narsalarni aks etishi bilan. Bu: fotosurat, rasm, animatsiyali, multimediyali diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan iborat.

3. Ovozli ko'rgazmalilik – tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish - magnitafon, ovozli kino.

4. Ramziy va grafik ko'rgazmalilik – xaritalar, rejalar, sxemalar, chizma va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan ramziy ko'rinishda aks ettirish sababli fikrlashni rivojlantiradi. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish etishda unga puxta tayyorgarlik ko'rmasdan yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi. Ko'rgazmalilik. Ko'rgazmalilik tamoyili boshqa fanlarni o'qitishdagi kabi chizmachilikni o'qitish jarayonida ham asosiy va muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tamoyil qadim zamonlardan beri qo'llanilib kelinayotgan eng samarali o'qitish tamoyillaridan biridir.

MUHOKAMA

O'qituvchining bayoni, uning tushuntirishi aniq, ravshan obrazlarni o'z ichiga olishi, o'rganilayotgan savollarning mohiyatini ko'rgazmali tasvirlar yordamida ishonchli misollar bilan mustahkamlab borilishi kerak. Masala echishda, takrorlashda, o'quvchilardan so'rashda, xullas, barcha hollarda to'la ko'rgazmalilik bo'lishi lozim. Komp'yuterdagi rasmlar bilan bir qatorda o'qitishda ko'rgazmalilik jadvallar, sxemalar, fil'mlar, mul'timediali videoproektorlar orqali namoyish etiladi.

Ta'limning ko'rgazmaliligi – mavhum tushunchalarni egallashda bilish uchun asos hisoblanadi. Bu erda «ko'rgazmalilik» tushunchasi buyumlar (masalan, mashina detallari va boshqalar)ning bevosita o'zlari emas, balki ularning grafik tasvirlari bilan bog'liqligini qayd qilish zarur. Har qanday tasvir, chizma buyumni his qiladigan ko'rish organlarimiz orqali fahmlanadi. Shuning uchun ko'rgazmalilik inson miyasida chizmada ob'ekt belgilarini modellashtirish natijasida hosil bo'ladigan ko'rinish obrazi deb qabul qilinadi. Bu tamoyil o'quvchilar materialni yaxshi o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Y.A.Komenskiy ta'limda barcha sezgi organlariga tayanish lozimligini ta'kidlangan: ko'rinadiganini - ko'rish, eshitiladiganini - eshitish, hid taratayotganini – hidlash, his qilish mumkin bo'lganini – his qilish.

Hozirgi sharoitda chizmachilik darslarida bu tamoyil faqatgina jadval, plakat, dinamik qo'llanmalar, modellar, detallar, uzellar kabilarningo'zigina emas balki qo'shimcha ravishda ko'p sonli audiovizual vositalar (turli proeksion – apparatlar, kino, televedeniya) hamda turli xil boshqa nurdagi imkoniyatlar (displeylar, grafik amallarni chizadigan apparatlar)dan keng foydalanib qelinmoqda.

XULOSA

Chizmachilikda ko'rgazmalilikdan foydalanish me'yorida qo'llanilishi asoslangan bo'lib, o'quvchilarda fazoviy tasavvur va fazoviy obrazli fikrlashning rivojlanishiga zarar etkazmasligi ham kerak

Ko'rgazmali plakatlar tayyorlash. Ko'rgazmali plakatlar rangli, standartga amal qilingan holda, auditoridagi barcha o'quvchi va talabalarga ko'rinadigan, undagi matnlarni o'qiy oladigan holatda tayyorlanishi kerak. Rang tanlashda o'ta rang-baranglikdan qochish kerak. Chunki bu o'quvchini darsdan ko'zlangan asosiy maqsaddan chalg'itadi, ba'zan esa charchatadi. Plakatning sarlavhasidagi shriftlar o'lchamiga e'tibor berish kerak. Ta'rif yoki qoidalar ajraluvchi ranglarda bo'lishi kerak.

REFERENCES

1. S.R.Mirzaeva, J.Raxmonov, D.R.Mirzaeva. TDPuning 70 yilligi va "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" fakul'tetining 50 yilligiga bag'ishlangan "Muammolar, echimlar va taraqqiyot" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T; 2015 y.
2. E.G'oziev. Psixologiya. –T; "SHarq" nashriyoti, 2013 y.
3. N.I.Hurboev, A.A.Karimov, U.T.Alimovlar . TDPuning 70 yilligi va "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" fakul'tetining 50 yilligiga bag'ishlangan "Muammolar, echimlar va taraqqiyot" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T; 2015 y.